
O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
Botanika instituti

Yosh Botanik olimlarining an’anaviy IV-xalqaro konferensiyasi

AXBOROT XATI





2025-yil, 11–12 sentabr

Yosh Botanik Olimlarining An’anaviy IV-Xalqaro Konferensiyasi

So‘ngi yillarda botanika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar yangi sifat bosqichiga chiqdi. Ushbu jarayonda yosh botanik olimlarning hissasi juda yuqori, va ularning ijodiy yondashuvlari, innovatsion g‘oyalari sohaning rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatmoqda. Erishilayotgan yutuqlar bo‘yicha yosh olimlar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish va tajriba ulashish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika Instituti o‘simlikshunoslik sohasida muvofaqqiyatga erishayotgan yosh olimlar uchun o‘zlari erishgan yutuqlarini namoyish qilishda platforma vazifasini bajarmoqda. Ushbu platformalardan biri, an’anaviy ravishda, Botanika institutida tashkil qilinayotgan yosh botanik olimlar konferensiyasidir. O‘tgan davr mobaynida Botanika instituti uchta yirik “yosh botanik olimlar” konferensiyasiga mezbonlik qildi, buning natijasida 50 dan ortiq yosh olimlar o‘z ma’ruzalarini taqdim etdilar va ilmiy munozaralarda ishtirok etishdi.

2025-yilda ham Botanika instituti ushbu an’anani davom ettirish rejasini ishlab chiqdi va 11-12-sentabr kunlari navbatdagi yosh botanik olimlarining an’anaviy IV-xalqaro konferensiyasini o‘tkazishni maqsad qilmoqda. Ushbu konferensiyaning avvalgilaridan farqli jihati uning xalqaro miqyosda bo‘lishidir. Konferensiyada O‘zbekistondagi ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan bir qatorda, Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va boshqa davlatlardan yosh olimlarning ishtirok etishi kutilmoqda. Bu esa xalqaro ilmiy hamkorlik va tajriba almashuvlari uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Konferensiya o‘tkazishdan asosiy ko‘zlangan maqsad — yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, botanikaning turli sohalarida zamonaviy tadqiqotlar bo‘yicha tajriba almashish, xorijiy aloqalarni yanada mustahkamlash, shuningdek, o‘simliklar xilma-xilligini saqlashdagi muammolar va ularning yechimi bo‘yicha fikr almashishdan iborat. Konferensiya yosh olimlar uchun qimmatbaho bilim va tajribalarni o‘rganish, o‘zaro hamkorlik va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi innovatsion g‘oyalarni rivojlantirish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Konfrensiya quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tabiiy ekotizimlardagi o‘simliklar xilma-xilligi va botanik tadqiqotlarning zamonaviy usullari;

2. IUCN Qizil ro‘yxati va Milliy Qizil kitoblar: Xavf ostidagi turlarni baholashning ilmiy yondashuvlari;

3. O‘simliklarda molekulyar-genetik tadqiqotlar: filogeniya, biogeografiya va bioinformatika;

4. Biotexnologiya, o‘simliklar biokimyosi va strukturaviy botanikaning dolzarb yo‘nalishlari;

5. O‘simliklar introduksiyasi va kamyob turlarni saqlab qolishda *ex-situ* tadqiqotlarining ahamiyati.

Hamkor tashkilotlar

1. Xitoy Fanlar akademiyasi Kunming botanika instituti (Xitoy Xalq Respublikasi);
2. Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon fizika va kimyo texnika instituti (Xitoy Xalq Respublikasi);
3. Tojikiston Milliy Fanlar akademiyasining Botanika, o‘simliklar fiziologiyasi va genetika instituti;
4. Akademik B.G‘afurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston);
5. Qirg‘iziston Respublikasi Milliy Fanlar akademiyasi Biologiya instituti;
6. O‘simliklar biologiyasi va biotexnologiyasi instituti (Qozog‘iston);
7. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va uning ilmiy tadqiqot muassasalari;
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;
9. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN)
10. Jahon banki MUNIS loyihasini amalga oshirish guruhi.

Konferensiyani o‘tkazish tartibi

Hurmatli ishtirokchilar!

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya zamonaviy talablar asosida tashkil etilib, Botanika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar natijalarini keng jamoatchilikka taqdim etish hamda ilmiy muloqotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konferensiyaning rasmiy tillari sifatida quyidagilar belgilangan: o‘zbek, rus va ingliz tillari. Har bir ma’ruza ushbu tillardan birida taqdim etilishi mumkin.

Konferensiya o‘tkazish formati – **gibrid**, ya’ni ishtirokchilar anjumanda bevosita (offline) yoki masofadan turib (online) qatnashishlari mumkin. Har ikki shaklda qatnashuvchilar uchun bir xil shart-sharoitlar yaratiladi.

Konferensiyada qatnashishning ikki asosiy shakli mavjud:

* Tanlangan yo‘nalish bo‘yicha og‘zaki ma’ruza bilan ishtirok etish;
* Ma’ruzalarni tinglash, ularni muhokama qilishda faol qatnashish, savol-javoblar va fikr almashuvlarda ishtirok etish.

Konferensiya ma’ruzalariga qo‘yiladigan talablar:

- **Taqdimot davomiyligi:** har bir ma’ruza 10–12 daqiqa oralig‘ida bo‘lishi lozim;
- **Slaydlar soni:** taqdimot slaydlari 15–20 betdan oshmasligi lozim;
- **Taqdimot mazmuni:** ma’ruzada keltirilgan ilmiy natijalar zamonaviy uslublarga asoslangan, ishonchli va haqqoniy bo‘lishi shart. Ma’ruzachi o‘z izlanish natijalarini auditoriyaga tushunarli, lo‘nda va ta’sirchan tarzda yetkazib bera olishi zarur.

Konferensiyada ishtirok etish uchun tashkiliy qo‘mitaning elektron pochta manziliga (ijuramurodov@mail.ru) joriy yilning **30 iyul kuniga** qadar 1-ilovada keltirilgan shaklni to‘ldirib yuborishingizni so‘raymiz.

Konferensiyada ma’ruz bilan ishtirok etganlar sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Qo‘shimcha ma’lumot uchun bog‘lanish:

Tel: +99893 726-31-20 (Jo‘ramurodov Inom)

Telegram: @JuramurodovInom

E-mail: ijuramurodov@mail.ru

Tel: +99897 734-99-86 (Qodirov Ulug‘bek)

Telegram: @QodirovUlugbek_H

E-mail: qodirovu@bk.ru

1-ilova

Taqdimotchining familiyasi, ismi va otasining ismi
Taqdimotchining ish yoki o‘qish joyi
Lavozimi
Taqdimotchining ilmiy darajasi
Taqdimot mavzusi
Taqdimotni konfrensiya yo‘nalishlaridan qaysi biriga mos ekanligi
Telefon raqam
E-mail